



BO'LAJAK TARBİYACHILARNING KASBIY SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xabilova S.T.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ziyadullayeva M.

Termiz davlat pedagogika Instituti talabasi

Tayanch so'zlar: tarbiyachi, maxorat, pedagogik, jarayon, qobiliyat, murabbiy, texnologiya, shaxs, ijtimoiy, madaniy ta'lim, ilm-fan.

Ключевые слова: педагог, мастерство, педагогика, процесс, способности, тренер, технология, личность, социальное, культурное образование, наука.

Key words: educator, skill, pedagogy, process, ability, coach, technology, person, social, cultural education, science

Bugungi kunda rivojlanayotgan maktabgacha ta'limni muassasalarini tashkil etish, innovatsiyalar, yangi zamonaviy texnologiyalar va bolalar bilan ishlash usullarini rivojlantirish hamda joriy etish uchun alohida shart-sharoitlarni talab qiladi. Bunday vaziyatda kasbiy kompetentsiya ayniqsa muhimdir, uning asosi pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi hisoblanadi. Tarbiyachilarda shaxslilik va mutaxassislik tayyorgarlik darajasi qanchalik baland ko'rsatgichga ega bo'lsa, ta'lim oluvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarda yaxshi yutuqlarga erishiladi.

Tarbiyaching maxoroti yuksak pedagogik tafakkur ta'lim- tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib u doimiy ravishda tarbiyachi bilimlarni oshirib borish o'tmish qadriyatlarini O'rta Osiyo mutafakkurlari asarlarida yoritilgan murabbiylarini ulug'lash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalar, ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. tarbiyachilarimiz qanchalik sifatli kadr bo'lib, o'z kasblarini sevib maktabgacha ta'lim tarbiyachilariga ta'lim-tarbiya bersalar shunchalik yoshlarimiz kelajagi porloq bo'ladi. Inson qaysi kasbda faoliyat olib borsa ham o'z ishiga, mashg'ulotiga



qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi.

Kompetentlikni baholashda alohida olingan biror-bir layoqatlilik darajasini tushinish kerak emas, balki inson tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan o'z maqsadlarga erishish uchun sarf qilinadigan uzoq vaqt davomida turli jarayondagi vaziyatlarda namoyon qilinadigan kompetentliklarning to'liq to'plamini nazarda tutish kerak bo'ladi. Bunda inson duch kelgan muayyan vaziyat uning rivojlanishiga, qadriyatlarining shakllanishiga va yangi kompetentliklarni egallashiga bevosita ta'sir etadi. Kompetentlikning mavjudligi inson mehnatining natijasiga qarab belgilaniladi, amaliyotda sinaladi.

Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin.

Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Seminar – ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O'yinlarni modellashtirish. Ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o'z ichiga oladi, bu davrda sun'iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar qabul qilinadi. Kollektiv muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o'z-o'zini tarbiyalash ishlarining usullari, maktabgacha ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.

Pedagogik halqa – tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o'rganishga yo'naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyalarini dalil qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to'g'riligini o'rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadi:

- Umumiy bilim;
- Kasbiy bilim, qobiliyat, ko'nikma;
- Qiyin vaziyatdan chiqish qobiliyati, tezkorlik.

Ishbilarmonlik o'yini nafaqat maktabgacha ta'lim muassasasi uchun dolzarb bo'lgan muammo bo'yicha nazariy seminar natijalariga asoslangan test darsi sifatida, balki yangi muammo echimlarini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi mumkin. Kasbiy bilimdonlik bu fikrlashni bilish va kasbiy bilimdonlik bilan harakat qilishdan iborat.



Pedagog kasbiy potentsiali umumiy tuzilishining tashkil etuvchilariga intellektual, asoslangan, kommunikativ, ijodiy va o'z kasbiy qobiliyatlari kiradi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish va shu yo'lda qator islohotlarni amalga oshirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari oldiga barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularni maktab ta'limiga har tomonlama tayyor, zamon talablariga mos ravishda jismoniy, aqliy intellektual, ijodiy va shu kabi qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil Vatanimizning ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qiladigan ruhda tarbiyalash lozimligi dolzarb vazifa qilib qo'yilgan. Shunday ekan, zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish malakasi, qisqa qilib aytganda, tarbiyachilarning o'zlarida kreativ kompetentlik rivojlangan bo'lishi kerak. Zero, o'zi kreativ salohiyatga ega bo'lmagan tarbiyachi yoki mutaxassis bolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirmaydi. Zamonaviy sharoitda har bir shaxsning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va rivojlantirish masalasi ayniqsa dolzarbdir.

Jamiyat ijtimoiy faol a'zolariga, kreativ va ijodkor shaxslarga shoshilinch ehtiyojni boshdan kechirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi - ijtimoiy ahamiyati, yangiligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan inson faoliyati va mustaqil faoliyatining oliy shaklidir. Ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarining tabiatiga bo'lgan qiziqish fan va texnikaning rivojlanishi va ularning oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan tarbiyachilarni tayyorlash zarurati



bilan bog‘liq holda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma‘naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish oliy ta‘lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligini belgilab berdi.

Uzluksiz ta‘lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarini kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda. Shunday ekan, oliy ta‘lim muassasasi talabalari va o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta‘lim mazmuniga, o‘qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullariga hamda ta‘lim va tarbiya jarayonida talabalar va o‘qituvchilar orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o‘zgarishlar kiritishni talab etadi. Shunga binoan, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarini o‘qitishda ta‘limni tashkil etishning mavjud shakllari bo‘lgan ma‘ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarini mazmunan yangilash, qo‘shimchalar kiritilishi nazarda tutiladi. Ma‘ruza darslarini ijodiy va erkin fikrlovchi muammoli ta‘lim shaklida, seminar darslarni kreativ sifatlarni shakllantirishga va amaliy mashg‘ulotlarda kreativ kompetentlikni rivojlantiruvchi metod va texnologiyalar asosida tashkil etish qolaversa, integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishligi kutilayotgan natijaga samarali erishishda maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim mutaxassislik darslarida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan axborot texnologiyalari vositalari.

O‘quv kompyuter dasturlarining asosiy funksiyalari: - o‘quv jarayonini individuallashtirish va farqlash; xato diagnostikasi va teskari aloqa bilan monitoring qilish; ta‘lim faoliyatini o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini tuzatish; - o‘quv ma‘lumotlarini modellashtirish va o‘rganilayotgan jarayonlar yoki hodisalarni tahlil qilish; - turli vaziyatlarda eng yaxshi qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish; fikrlashning ma‘lum bir turini rivojlantirish (masalan, 105 vizual-majoziy, nazariy); - o‘rganish uchun motivatsiyani kuchaytirish (masalan, dasturning vizual vositalari yoki o‘yin vaziyatlarining kesishishi tufayli); - kognitiv faoliyat madaniyatini shakllantirish va boshqalar. Multimedia ensiklopediyalari - kerakli va foydali ma‘lumotlarni tezda topish, mavzular, kreativ qobilyatlarni rivojlantiruvchi video yoki animatsiya fragmentlarini tomosha qilish; turli mavzulardagi fotosuratlar bilan tanishish; turli lug‘atlar bilan ishlash va hokazo. Ensiklopediyalar yordamida nafaqat yuqori sifatli va qiziqarli taqdimot tayyorlash, balki guruhda yoki uyda mustaqil ishlash mumkin.

Internet resurslari. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalar kompyuter dasturlarini ishtiyoq bilan o'zlashtiradilar. Elektron ta'lim tizimi foydalanuvchiga o'quv materiallari va ulardan olingan bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o'quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta'limda o'quv vositalaridan foydalanish o'zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirmoqda.

Multimedia taqdimotlari. Bunday ishlar mashg'ulotlarning turli bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin: topshiriqlarni tekshirish shakli sifatida; muammoli vaziyatni yaratish usuli sifatida; yangi materialni tushuntirish usuli sifatida; o'rganilgan narsalarni mustahkamlash shakli sifatida; dars davomida bilimlarni tekshirish usuli sifatida. Kompyuter taqdimotidan foydalangan holda darslar interfaol rejimda yangi materialni tushuntirish darslari va darsma'ruza va dars-umumiylashtirish, dars-ilmiy konferensiya, darsloyiha himoyasi va integratsiyalashgan va Internet-konferensiya rejimida dars-taqdimot va dars-munozara darslardir. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarini kreativ kompetentligini rivojlantirishda magnit doskalar, flesh-kardlar, smart interaktiv ta'lim vositalari va turli xildagi flipchart doska- lardan foydalanish mumkin.

Talabalar bilan ijodiy yondashuvni tashkil etishda, ularning kreativlik darajalarini aniqlash va bo'lajak tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar, seminar treninglar, kichik guruhlarda yoki jamoada ishlash mobaynida turli xil kerakli va foydali jihozlar: o'quv qurollari va nostandart jihozlarning to'g'ri tanlashning ahamiyatli tomoni shundaki, faqatgina talabalarning kreativ qobilyatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki ularda kasbiy faoliyatga qiziqish, mehr, ishtiyoq uyg'otishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda eng avvalo, oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining o'zlari ushbu faoliyatga tayyorligi, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda imkon beruvchi muhitni yaratish va talabalarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga hamda kelgusida o'z kasbiy faoliyatlarida amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lishlari III renesans davrida juda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'Latova, M. M. Pirmuhamedova, J.R.T. Akbarova I, M. Sh. Nurmatova, N. M. Qayumova, N.N. Jamilova, X. Sariboyev, L.A. Kulay "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent - «ILM ZIYO» - 2011- 184 b.

2. Azam Xoliqov "Pedagogik mahorat" Darslik "Iqtisod Moliya" Toshkent -2011 420 - b



3. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A'zamova "Maktabgacha Pedagogika" Darslik "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent – 2019-688 b

4. Sh. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent "Tafakkur Bo'ston". –, 2013-288 b

5. S. T. Xabilova, H. Payg'amova, Pedagog - tarbiyachi shaxsini shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2023 2(10)-son 100–102-b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari bo'lajak yosh tarbiyachilarning kasbiy qobiliyatlarini qay yo'sinda shakllantirish kerakligi yuzasidan hamda tarbiyachilarning o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali kasbiy salohiyatini yanada rivojlantirish uchun nazariy ma'lumotlar berilgan. Yosh tarbiyachilarning kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogning tajribali malakaga ega bo'lishi o'z kasbiga nisbatan bilim, ko'nikma malaka yani BKM ni rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье вузов обсуждаются способы формирования профессиональных способностей будущих молодых педагогов и задачи саморазвития педагогов, посредством самоанализа и самооценки приводятся теоретические сведения для дальнейшего развития профессионального потенциала. При формировании профессиональных способностей молодых педагогов даются рекомендации по развитию знаний, умений и профессиональной компетентности педагога применительно к своей профессии.

SUMMARY

In this article, higher education institutions discuss how to shape the professional abilities of future young educators and the tasks of self-development of educators, through self-analysis and self-evaluation. theoretical information is provided for further development of professional potential. In shaping the professional abilities of young teachers, recommendations are given for the development of knowledge, skills and professional competence of the pedagog in relation to his profession.